

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA TARJIMA JARAYONIDA MA'NO YO'QOLISHI MUAMMOSI

Xayrullayeva Nafisaxon

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Ingliz tili va adabiyoti, 1-fakultet,
2307-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Saloxiddinova Sayyora

Annotatsiya. Ko'p tillar o'rtasida tarjima qilishda to'liq bo'lmagan ma'no saqlanib qoladi. Bu asosan tillarning ichki tuzilmalari va asosiy madaniy munosabatlar o'rtasidagi farqlar bilan izohlanadi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillariga asoslangan holda tarjima jarayonida sodir bo'ladigan semantik siljishlarni o'rganadi. Turg'un idiomalar, grammatik shakllar va terminologiyani tarjima qilish bilan bog'liq muammolarga alohida e'tibor beriladi. Yangi lug'at, o'rnini bosuvchi so'zlarning yetishmasligi va ma'nodagi madaniy tafovutlar tadqiqot davomida muhim elementlar sifatida hisobga olinadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi ko'p birliklar ko'pincha kengroq tushuntirish orqali ifodalangan bo'lsa, ingliz tilidagi ko'p birliklar yashirin va kontekstga bog'liq ma'nolarni ifodalaydi.

Kalit so'zlar: tarjima, ma'noning yo'qolishi, frazeologik birlik, grammatikalizatsiya, lingvokulturologiya, pragmatika.

Abstract. In translation between multiple languages, a complete preservation of meaning is often not achieved. This is primarily explained by differences in the internal structures of languages and underlying cultural relationships. This article examines semantic shifts that occur during the translation process, based on English and Uzbek languages. Particular attention is given to problems related to translating fixed idioms, grammatical forms, and terminology. The lack of equivalent vocabulary, the absence of substitutable words, and cultural differences in meaning are considered important elements in the study. The findings show that many units in Uzbek are often expressed through broader explanations, whereas many units in English convey implicit and context-dependent meanings.

Keywords: translation, loss of meaning, phraseological unit, grammaticalization, linguoculturology, pragmatics.

Аннотация. При переводе между несколькими языками полное сохранение смысла часто не достигается. Это в первую очередь объясняется различиями во внутренней структуре языков и культурных отношениях. В данной статье рассматриваются семантические сдвиги, возникающие в процессе перевода, на основе английского и узбекского языков. Особое внимание уделяется проблемам, связанным с переводом устойчивых идиом, грамматических форм и терминологии. Недостаток эквивалентной лексики, отсутствие взаимозаменяемых слов и культурные различия в значении рассматриваются как важные элементы исследования. Полученные результаты показывают, что многие единицы в узбекском языке часто выражаются посредством более развернутых объяснений, тогда как многие единицы в английском языке передают скрытые и контекстно-зависимые значения.

Ключевые слова: перевод, потеря значения, фразеологическая единица, грамматикализация, лингвокультурология, прагматика.

Insonlararo muloqotning asosiy vositasi hisoblangan til va tarjima nafaqat axborot almashinuvida, balki bu orqali madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar va tafakkurning ham uzatilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'nikim, har bir mustaqil tilning o'zining leksik, grammatik va madaniy xususiyatlariga egaligi sababli, bir tildagi mazmuni boshqa tilda to'liq va aniq ifodalash yoki ekvivalentini osonlik bilan topa olish tarjimonga birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillari kabi turli tipologik va madaniy tizimlarga ega tillar bo'lganligi sababli tarjimada bu kabi muammolar yaqqol seziladi. Shuningdek, tarjima jarayonida ma'no yo'qolishini tushuntirishda tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari tarjimon matnni nafaqat leksik jihatdan to'g'ri yetkaza olishi, balki madaniy va pragmatik nuqtayi nazardan ham me'yorga keltira olishi lozim sanaladi. Ammo frazeologik birliklar, mustaqil ma'noli fe'llar, neologizmlar va lingvokulturologik birliklar tarjimasida ko'pincha semantik va emotsional ma'no to'liq saqlanmasligi o'quv jarayonida g'alizlik tug'diradi. Shu sababli ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillari misolida ushbu muammo tarjimashunoslik va lingvistik tarafdin tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida ma'no yo'qolishi muammosi zamonaviy tilshunoslikda keng o'rganilayotgan masalalardan biri hisoblanib, turli tipologik va madaniy tizimlarga ega bo'lgan tillar, xususan, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada yaqqol namoyon bo'lishi muqarrar.

Birinchidan, Uraimshikova (2026) o'z tadqiqotida frazeologik birliklar tarjinasida yuzaga keladigan muammolar haqida ish olib boradi va u frazeologizmlarning nutqdagi emotsional va madaniy yukini ta'kidlab o'tadi. Ushbu tadqiqotga ko'ra, bunday birliklarni tarjima qilishda ularning pragmatik va madaniy ma'nosi ko'pincha yo'qolishi yoki o'zgarishi ehtimoli katta ekanligini ham ta'kidlab o'tgan.

Ashurov (2024) esa mustaqil fe'llar va ularning grammatikalizatsiyasi orqali ma'no yo'qolishi masalasini ko'rib chiqqan. Uning fikriga qaraganda, ingliz tilidagi ko'p ma'noli fe'llarning (masalan, "get") turli kontekstlarda turlicha ma'no kasb etishi tarjima jarayonida qiyinchilikni yuzaga keltiradi.

Rashidova (2024) o'z tadqiqotida inglizcha IT terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolarni tahlil qilgan. Uning tadqiqotida qayd etilishicha, IT sohasidagi tezkor rivojlanish sababli neologizmlar va leksik bo'shliqlar yuzaga kelish ehtimoli katta, bu holat esa tarjimada ekvivalent topishni murakkablashtiradi. Shu boisdan, borrowing, calque, adaptation va izohli tarjima kabi strategiyalar keng qo'llanila boshlanadi.

Bundan tashqari, Qodirova (2024) lingvokulturologik birliklar va madaniy konnotatsiyalarni tahlil qilish mobaynida, tarjimada madaniy ma'no to'liq saqlanmasligi natijasida semantik yo'qotish yuzaga kelishini ko'rsatgan.

A. IT terminologiyasi va leksik bo'shliqlar. Yangi texnologiyalar rivojlanishi bilan bir qatorda ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada IT terminologiyasi alohida muammo sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida tez-tez paydo bo'ladigan neologizmlar o'zbek tilida muqobil ekvivalentga ega bo'lmasligi achinarli hol, albatta. Natijada, "software", "hardware", "server", "cloud computing" kabi atamalar ko'pincha asl shaklda yoki turlicha tarjima variantlarida qo'llanilib kelinmoqda. Bu esa terminologik noaniqlik va ma'no yo'qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, "application" so'zi ba'zan "dastur", ba'zan esa "ilova" sifatida tarjima qilinadi, bu esa kontekstga qarab ma'no farqlanishiga olib keladi. Shu bois ko'p hollarda bunday birliklarda borrowing va calque strategiyalari qo'llaniladi.

B. Frazеologik birliklarda pragmatik ma'no yo'qolishi. Frazеologik birliklar nutqning emotsional va madaniy jihatini aks ettiradi. Ularni tarjima qilish jarayonida esa nafaqat leksik, balki pragmatik ma'no ham yo'qolishi mumkin. Jumladan, ingliz tilidagi *"break the ice"* iborasi so'zma-so'z tarjimada tushunarsiz bo'lib qoladi, aslida esa u *"muloqotni boshlash uchun qulay muhit yaratish"* ma'nosini anglatadi. Xuddi shuningdek, *"hit the sack"* iborasi ham to'g'ridan-to'g'ri tarjimada ma'nosini yo'qotib, faqat madaniy moslashtirish orqali *"yotishga yotish"* birikmasi orqali ifodalanadi. Bu holatlar esa frazeologik birliklarni tarjima qilishda adaptation va madaniy moslashuv zarurligini ko'rsatadi.

C. Mustaqil fe'llar va grammatikalizatsiya. Mustaqil fe'llarning grammatikalizatsiyasi ham tarjimada ma'no yo'qolishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida ayrim fe'llar kontekstga qarab turli xil grammatik va leksik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, *"get"* fe'li ingliz tilida juda ko'p funksiyaga ega fe'l hisoblanib, u *"olmoq"*, *"yetib bormoq"*, *"bo'lmoq"*, *"tushunmoq"* kabi turli ma'nolarda qo'llaniladi. Uni o'zbek tiliga tarjima qilishda kontekstni to'g'ri anglamaslik ma'no buzilishiga olib keladi. Bu esa fe'llarning analitik va konversiv xususiyatlari tarjimada alohida e'tibor talab qilishini ko'rsatadi.

D. Lingvokulturologik elementlar va madaniy konnotatsiya. Til birliklari ko'pincha ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan yashirin ma'nolarni o'zida mujassam etadi. Bunday lingvokulturologik elementlarni tarjima qilishda esa ma'no to'liq saqlanmasligi mumkin.

Masalan, *"the lion's share"* iborasi ingliz tilida *"eng katta ulush"* ma'nosini anglatadi, biroq uni so'zma-so'z tarjima qilish natijasida bu ma'no yo'qoladi yoki kuchsizlashadi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda izohli yoki moslashtirilgan tarjima usullaridan foydalanish lozim.

Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat beradiki, turli lingvistik va madaniy omillar tarjimada ma'no yo'qolishining asosiy sababi hisoblanadi. Ayniqsa, terminologiya, frazeologiya, fe'llar va madaniy birliklar tarjimasida bu muammo yaqqol namoyon bo'ladi. Hattoki terminologik birliklarni tez va oson yetkazib berishda samarali usullardan deb topilgan borrowing va calque strategiyalari ham har doim ham ma'noning to'liq tushunilishini ta'minlamaydi. Bundan tashqari adaptation va madaniy moslashuv esa frazeologik va lingvokulturologik birliklarda samaraliroq hisoblanadi. Shu o'rinda izohli tarjima usuliga to'xtaladigan bo'lsak, murakkab tushunchalarni tushuntirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu sababdan ham, tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy va pragmatik kompetensiyaga ham ega bo'lishi uning tarjimasining aniq va to'g'ri yetkazilishini ta'minlaydi. Aynan shu omillarni hisobga olgan holda tarjimada ma'no yo'qolishini kamaytirish mumkin. Tarjima jarayonida ma'no yo'qolishi muammosi murakkab va ko'p qirrali hodisalardan biri hisoblangan holda, lingvistik, terminologik, madaniy va pragmatik omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Xususan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada IT terminlari, frazeologik birliklar va mustaqil fe'llarning ma'nosini saqlab qolish uchun ilmiy asoslangan tarjima strategiyalari (borrowing, calque, adaptation, explicative translation) va madaniy sezgirlik muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot esa adabiyotlar tahlili orqali tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni ko'rsatib, samarali yechimlar taklif qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurov, S. (2024). Mustaqil ma'noli fe'llarda grammatikalizatsiya hodisasi (ingliz va o'zbek tillari misolida). DOI: <https://doi.org/10.2024/5syvmp79>.
2. Qodirova, X. (2024). Lingvokulturologik birliklarning tahlili. Retrieved from ResearchGate: <https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Qodirova>.
3. Rashidova, N.M. (2024). Inglizcha IT terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari. Ta'lim, Tarbiya va Innovatsiyalar, 2(4), 162-166.
4. Uraimshikova, M.R. (2026). Dialogik diskursda frazeologik birliklar: ularning qo'llanilishi va tarjimasi. O'zbekiston Fanlararo Innovatsiyalar Jurnal, 48, 148-156.